



## PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM XIZMATLARNI TASHKIL ETISHDAGI USLUBLAR HAMDA TEXNALOGIYALAR

*Usmonov Sodiq – Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti.*

*Boqiyev Ramazon – JDPU 2 - kurs TMB magistranti.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda jamiyatimizda professional ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan asosiy maqsad yoshlarimizning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishiga hamda zamonaviy dunyo qarashga ega bo'lishiga qaratilgan. Tahlikali zamonda mavjud bo'lgan har qanday xatarga, zararli ta'sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hushyor bo'lib yashashini va jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat hisoblanadi.

**Annotatson:** Today, the main goal of modernizing the system of professional education in our society and raising the efficiency of education to a new level of quality is aimed at acquiring modern knowledge and skills, acquiring a modern outlook. It is important to ensure that people are aware, sensitive and aware of all the dangers, harmful effects and currents that exist in times of danger, and to ensure that they occupy a worthy place in the life of our society.

**Аннотация:** Сегодня основная цель модернизации системы профессионального образования в нашем обществе и поднятия эффективности образования на новый качественный уровень направлена на приобретение современных знаний и навыков, приобретение современного мировоззрения. Важно добиться того, чтобы люди были осведомлены, чутки и осведомлены обо всех опасностях, вредных воздействиях и течениях, существующих во время опасности, и чтобы они занимали достойное место в жизни нашего общества.

**Kalit so'z:** professional ta'lim, pedagogik texnologiya, ta'lim, o'qituvchi, guruhda ishslash, modernizatsiya, ta'lim tarbiya samaradorligi



**Key words:** professional education, pedagogical technology, education, teacher, group work, modernization, educational training

**Ключевые слова:** профессиональное образование, педагогическая технология, образование, педагог, групповая работа, модернизация, образовательная подготовка

Zamonaviy sharoitda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati uning insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga, fan, madaniyat va ta'limga qo'shayotgan hissasiga bevosita bog'liqligi barchamizga sir emas. Bu jarayonda professional ta'lism hamda oliy ta'lim jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy, zamonaviy axborot jarayonlarining asosiy, yetakchi omillaridan biri sifatida alohida o'rinn tutadi. Jamiyat hamda davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani, mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilab borishini, harakatlarini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan tadbirlar ta'lim tizizmini takomillashtirish vazifalarini ham belgilab berdi. Shu asosda Respublikamizda amalga oshiliyotgan keng ko'lamli islohotlar fonida ta'lim tizimida sezilarli yuksalish kuzatilib bormoqda, ko'lam va sifat jihatdan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Shuningdek, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jrayonlarning jadallahushi, raqamlashtirish, zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlab borishni, kasb – hunar ta'lim sohasida yangi tizimni – xalqaro andozalarga mos bo'lgan professional ta'lim tizimini talab qildi. Davlatimiz iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali, faol ishtirot etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion shakllar, texnologiyalar hamda zamonaviy texnologik ishlanmalarini qo'llab, profeesional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini ta'minlash ta'lim xizmatlarini tashkil etishdagi asosiy masala sifadida qolmoqda.

Talabgorlarning professional ta'lim muassasalarini ixtiyoriy tanlashlari va kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bilim olishlari, shuningdek, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasbiy tayyorgalik va qayta tayyorlashdan o'tishlari imkoniyatiga ega bo'lish sharoitlarini yaratish hamda Professional ta'lim olish orqali shaxslarning intellectual,



madaniy hamda ma'naviy rivojlanishga bo'lgan individual extiyojlarini qondirish, o'quvchilarda vatanparvarlikni, faol fuqorolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas'uliyat va ijodiy faoliyatni, amaliyotni rivojlantirish zamonaviy ta'lif tendinsiyasining barqaroq ko'rinishi hisoblanadi.

Respublikamiz Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta'lif muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lif muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlatimizda 2020-2021 o'quv yildan boshlab kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish asosida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish vazifasi kun tartibiga qo'yildi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta'lif muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lif muassasalari saytlarini ta'lif jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. [1]

An'anaviy va elektron shakldagi o'quv materiallari yagona ta'lif muhitining tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini to'ldirishlari muhim sanaladi. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni bartaraf etishga bugungi kunda xizmat qiladi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'nnaviy tashkil etishning asosi shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari zamonaviy axborot tizimidan xabardor ekanligi shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o'qituvchi bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ta'lif jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishslashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida



tahsil olayotgan talabalarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko'rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mayjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda. Ta'lismiz xizmatlari marketingi mohiyatini o'rganishni uni tarkib toptiruvchi unsurlardan: ta'lismiz xizmatlari sub'ektlari va ob'ektlaridan boshlagan ma'qul. Ta'lismiz xizmatlari marketingi sub'ektlari sirasiga, qoidaga ko'ra: ta'lismiz muassasalari, xizmat iste'molchilari, bozorda ta'lismiz xizmatlarini ilgari surish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va tuzilmalar kiritiladi. Biz o'rganayotgan holatda ta'lismiz muassasalari sifatida professional ta'lismiz muassasi (ta'lismiz muassasasi)ning o'zi ko'rib chiqiladiki, uning iste'molchilari yuridik shaxslar ham, jismoiniy shaxslar ham bo'lishi mumkin. Qo'shimcha qilib faqat shuni aytish mumkinki, ta'lismiz muassasasi xizmatlari marketingining pirovard iste'molchilari (ob'ekti) asosan katta yoshdagi aholi vakillari bo'lib hisoblanadi. SHu sababli katta yoshlilar pirovard iste'molchilar sifatida ta'limga yo'nalişlarini, shakllarini, joyini, vaqtini moliyalash manbalarini tanlashga sezilarli ta'sir o'tkazadilar. [2]

Ta'lismiz xizmatlari ko'rsatishga oid marketing munosabatlari, uning dasturlari va boshqa xizmat turlari o'quv kurslarining iste'molchisi sifatida yuz ko'rsatuvchi katta yoshdagi odam manfaatlari atrofida shakllanadi. Ta'lismiz muassasining marketing faoliyatini tashkil etishda ta'lismiz xizmatining o'zi ta'limga ustoz-muallim atalmish ta'lismiz beruvchi ob'ektidan ajralmasdir. Professional bilim, kattalarga ta'lismiz berishning maxsus uslubiyatlaridan foydalanish, auditoriyani jalb eta bilish, tinglovchilar bilan ishonch hasosidagi munosabatlarni o'rnatish, ta'lismiz natijasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, muallimni, yoki mashg'ulot jarayonini uyuştiruvchi boshqa shaxsni tanlash va uni tayyorlash, ko'pincha hatto yaxshi saviyada tayyorlangan dasturlar va o'quv materiallaridan-da ko'proq ahamiyat kasb etadi. Mualim bilan ishlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, Markazlarning faoliyatida jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (tinglovchilarning qoniqmasligi, rejalashtirilgan natijaga erisha olmaslik, ayrim tinglovchilarning mashg'ulotlarda qatnanishishni rad etishlari).



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki professional ta’lim xizmatlar o‘zining mazmuni bilan bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan vazifani amalga oshirishi lozim. Unga ilmiy yondashuvlar esa ta’lim mazmunini bilimlar, malaka hamda ko‘nikmalar, qarashlar va e’tiqodlar, shu bilan birga, bilish nazariyasi kuchi hamda amaliy tayyorgarliklar rivojlanishining muayyan darajasi tizimi yig’indisi sifatida izohlaydi. Ta’lim mazmunining mohiyati unga bo‘lgan turli yondashuvlar mezonida belgilanadi. Hozirgi davrda ta’limni insonparvarlashtirish hamda ta’lim mazmunining mohiyatini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni maydonga olib chiqdi. Bu yondashuv markazida esa shaxs turadi. Bu kabi yondashuv ta’lim mazmunini erkin tanlash imkoniyatini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning ta’limiy, ma’naviy, madaniy hamda hayotiy talablari qondiriladi. Eng muhimi, shaxsga nisbatan insonparvarlik munosabati namoyon bo‘ladi, madaniy - ta’limiy sharoitda o‘qish individualligi hamda mustaqil harakat qila olish imkoniyati shakllanadi. Bugungi zamonaviylashgan ta’limdagi islohotlar esa shaxsning mehnat bozorida raqobatbardoshlik sifatlari ta’minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOT

- 1.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, “Xalq so’zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar. Manba: [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz)
2. Nazarova D. Ta’lim xizmatlari marketingida axborotni boshqarish // Jamiyat va boshqaruv. – 2010. – 3. – 66-67-b.